

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**BOBOQULOV XAMID MAXMADO‘STOVICH**

**OILAVIY (MAISHIY) ZO‘RAVONLIKKA QARSHI KURASHISHNING  
JINOYAT-HUQUQIY VA KRIMINOLOGIK JIHALARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi  
12.00.15 – Kriminologiya (yuridik fanlar)

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Yu1474 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsul.uz/uz-ilmiy-kengash](http://www.tsul.uz/uz-ilmiy-kengash)) va "ZiyoNET" Axboro ta'lim portaliga ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)) joylashtirilgan.


<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Hakimov Komil Baxtiyorovich</b> yuridik fanlar doktori (DSc), professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Kabulov Rustam</b> yuridik fanlar doktori (DSc), professor <b>Djalilov Furqat Zakirovich</b> yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020 Yu.22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 9-oktabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko'chasi, 35. Tel.: +99871 233-66-36; faks: +998971 233-37-48; e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1425-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko'chasi, 35. Tel.: +99871 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 23-sentabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 23-sentabrdagi 57-raqamli reestr bayonnomasi).

  
**A.A. Otajonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**I.B. Djurayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**D.B. Bazarova**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy xizmatdoshi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda oilaviy zoʻravonlik, jumladan ruhiy, iqtisodiy, jinsiy va jismoniy zoʻravonliklar jamiyatga ijtimoiy-iqtisodiy zarar yetkazib, oila institutining darz ketishiga, bolalar tarbiyasining buzilishiga va jinoyatchilik darajasining oʻrtishiga olib kelmoqda. Xususan, JSST maʼlumotlariga koʻra, dunyo boʻylab ayollarning uchdan biri (30%) hayoti davomida jismoniy yoki jinsiy zoʻravonlikka uchraydi<sup>1</sup>, pirovardda sogʻliqni saqlash, huquqni muhofaza qilish va jabrlanuvchilarga yordam dasturlariga ulkan mablagʻlar sarflanib, milliy iqtisodiyotga zarar keltiradi. Mazkur holat jamiyatda zoʻravonlik natijasida ruhiy salomatlikka doir muammolar, jumladan, depressiya, tashvish, travmatik stresslarga olib kelmoqda. Bu kabi holatlar patriarxal anʼanalarning zoʻravonlikni qoʻllab-quvvatlovchi elementlarini tanqid qilish va sogʻlom oilaviy qadriyatlarini rivojlantirish, gender tengligi boʻyicha xalqaro standartlarni milliy darajada joriy qilish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda oilaviy zoʻravonlik holatlariga tezkor va samarali javob berish tizimini takomillashtirish, oilaviy (maishiy) zoʻravonlik uchun jinoyat javobgarlikni qoʻllash tizimini isloh qilishni taqozo etmoqda. Bu esa, oʻz navbatida, oilaviy (maishiy) zoʻravonlikka qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini tadqiq etish zaruratini koʻrsatadi.

Jahonda oilada ayollarga nisbatan zoʻravonlikni alohida oʻrganish, zoʻravonlikka qarshi kurashishda qonunchilikni takomillashtirish, mazkur jinoyatning oldini olishda ijtimoiy-tarbiyaviy va kriminologik yondashuvlarni takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarga alohida eʼtibor berilmoqda. Jumladan, zoʻravonlik sodir etgan erkaklar uchun xulq-atvorni tuzatishga qaratilgan maxsus dasturni ishlab chiqish, zoʻravonlikka uchragan oilalardagi bolalarga psixologik yordam koʻrsatish, bolalarning hissiy salomatligini yaxshilash, jinoyatchilikka qarshi kurashda gender tenglik va zoʻravonlikka qarshi kurashga oid taʼlim imkoniyatlaridan foydalanishning tashkiliy-huquqiy choralarni takomillashtirish yuzasidan muayyan natijalarga erishilgan. Shunga qaramasdan bugungi kun sharoitida oilaviy (maishiy) zoʻravonlikka qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlariga xos nazariy, amaliy va huquqiy muammolarni kompleks tarzda oʻrganish, bu sohadagi mavjud muammolarni aniqlash va ularga yechim berish hamda maishiy zoʻravonlikka barham berishga doir qonunchilik va uni qoʻllash amaliyotini takomillashtirish zarurati taqozo etilmoqda.

Respublikamizda oila institutining milliy qadriyat sifatidagi ahamiyatini oshirish, xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisidagi maxsus qonunchilik bazasini shakllantirish va kengaytirish, jabrlanuvchilarni himoya qilishning maxsus mexanizmlari, jumladan, himoya orderlari joriy qilish, erkaklar va ayollar oʻrtasida teng huquqlilik va imkoniyatlar yaratishning huquqiy asosini barpo qilish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmonida jamiyatda

<sup>1</sup> WHO. 2021. Devastatingly pervasive: 1 in 3 women globally experience violence. <https://www.who.int/news/item/09-03-2021-devastatingly-pervasive-1-in-3-women-globally-experience-violence>

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Boboqulov Xamid Maxmado'stovich**

Oilaviy (maishiy) zo'raonlikka qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari.....3

**Бобокулов Хамид Махмадустович**

Уголовно-правовые и криминологические аспекты борьбы с семейным (бытовым) насилием.....25

**Bobokulov Khamid Makhmadostovich**

Criminal-legal and criminological aspects of combating domestic violence.....51

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

List of published works

Список опубликованных работ.....55

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**BOBOQULOV XAMID MAXMADO‘STOVICH**

**OILAVIY (MAISHIY) ZO‘RAVONLIKKA QARSHI KURASHISHNING  
JINOYAT-HUQUQIY VA KRIMINOLOGIK JIHATLARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi  
12.00.15 – Kriminologiya (yuridik fanlar)

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Yu1474 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsul.uz/uz-ilmiy-kengash](http://www.tsul.uz/uz-ilmiy-kengash)) va “ZiyoNET” Axboro ta’lim portaliga ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Hakimov Komil Baxtiyorovich**  
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kabulov Rustam**  
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**Djalilov Furqat Zakirovich**  
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 9-oktabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.:+99871 233-66-36; faks: +998971 233-37-48; e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1425-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: +99871 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 23-sentabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 23-sentabrdagi 57-raqamli reestr bayonnomasi).

**A.A.Otajonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**I.B.Djurayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**D.B.Bazarova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda oilaviy zo‘ravonlik, jumladan ruhiy, iqtisodiy, jinsiy va jismoniy zo‘ravonliklar jamiyatga ijtimoiy-iqtisodiy zarar yetkazib, oila institutining darz ketishiga, bolalar tarbiyasining buzilishiga va jinoyatchilik darajasining ortishiga olib kelmoqda. Xususan, JSST ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab ayollarning uchdan biri (30%) hayoti davomida jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikka uchraydi<sup>1</sup>, pirovardda sog‘liqni saqlash, huquqni muhofaza qilish va jabrlanuvchilarga yordam dasturlariga ulkan mablag‘lar sarflanib, milliy iqtisodiyotga zarar keltiradi. Mazkur holat jamiyatda zo‘ravonlik natijasida ruhiy salomatlikka doir muammolar, jumladan, depressiya, tashvish, travmatik stresslarga olib kelmoqda. Bu kabi holatlar patriarxal an’analarning zo‘ravonlikni qo‘llab-quvvatlovchi elementlarini tanqid qilish va sog‘lom oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish, gender tengligi bo‘yicha xalqaro standartlarni milliy darajada joriy qilish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda oilaviy zo‘ravonlik holatlariga tezkor va samarali javob berish tizimini takomillashtirish, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun jinoiy javobgarlikni qo‘llash tizimini isloh qilishni taqozo etmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikka qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini tadqiq etish zaruratini ko‘rsatadi.

Jahonda oilada ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni alohida o‘rganish, zo‘ravonlikka qarshi kurashishda qonunchilikni takomillashtirish, mazkur jinoyatning oldini olishda ijtimoiy-tarbiyaviy va kriminologik yondashuvlarni takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda. Jumladan, zo‘ravonlik sodir etgan erkaklar uchun xulq-atvorni tuzatishga qaratilgan maxsus dasturni ishlab chiqish, zo‘ravonlikka uchragan oilalardagi bolalarga psixologik yordam ko‘rsatish, bolalarning hissiy salomatligini yaxshilash, jinoyatchilikka qarshi kurashda gender tenglik va zo‘ravonlikka qarshi kurashga oid ta’lim imkoniyatlaridan foydalanishning tashkiliy-huquqiy choralarni takomillashtirish yuzasidan muayyan natijalarga erishilgan. Shunga qaramasdan bugungi kun sharoitida oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikka qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlariga xos nazariy, amaliy va huquqiy muammolarni kompleks tarzda o‘rganish, bu sohadagi mavjud muammolarni aniqlash va ularga yechim berish hamda maishiy zo‘ravonlikka barham berishga doir qonunchilik va uni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish zarurati taqozo etilmoqda.

Respublikamizda oila institutining milliy qadriyat sifatidagi ahamiyatini oshirish, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi maxsus qonunchilik bazasini shakllantirish va kengaytirish, jabrlanuvchilarni himoya qilishning maxsus mexanizmlari, jumladan, himoya orderlari joriy qilish, erkaklar va ayollar o‘rtasida teng huquqlilik va imkoniyatlar yaratishning huquqiy asosini barpo qilish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida jamiyatda

---

<sup>1</sup> WHO. 2021. Devastatingly pervasive: 1 in 3 women globally experience violence. <https://www.who.int/news/item/09-03-2021-devastatingly-pervasive-1-in-3-women-globally-experience-violence>

xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash<sup>1</sup>, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish<sup>2</sup>, bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka toqatsizlik madaniyatini shakllantirish<sup>3</sup> jinoyat qonunchiligini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari va vazifalari etib belgilangan. Ushbu vazifalar oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikka qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlariga taalluqli chora-tadbirlarni qayta ko‘rib chiqish va yanada kengaytirish, sudlar tomonidan oilaviy zo‘ravonlikka oid ishlarni ko‘rishda qilmishga to‘g‘ri huquqiy baho berish va jinoyat qonunini qo‘llash shartlari, talablariga aniqlik kiritish, ushbu sohada qonunchilikni takomillashtirish masalalarini tadqiq etishni taqozo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ-561-son “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2024-yil 10-maydagi PQ-175-son “Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon va qarorlari, shuningdek Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-iyuldagi 445-son “Kriminologik faoliyatni ilmiy ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va mazkur sohadagi boshqa qonun hujjatlarini amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikka qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari milliy olimlardan M. Rustamboyev, R. Kabulov, A. Otajonov, Q. Abdurasulova, S. Niyozova, N. Salayev, Z. Shamsidinov, O‘. Xolmirzayev va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Biroq mazkur mavzu kompleks monografik tadqiqot darajasida o‘rganilmagan.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son. <https://lex.uz/docs/5841063>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 04.01.2020-yildagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-4676892>

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 11-sentyabrdagi PF–158-son Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 13.09.2023-y., 06/23/158/0694-coh; 29.12.2023-y. <https://lex.uz/docs/6600413>

Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik jinoyatining jinoyat-huquqiy, kriminologik jihatlarini quyidagi xorijiy olimlar o‘rgangan: V.A.Shakina, M.P.Pisklakova-Parker, A.N.Fateev, A.N.Ilyashenko, N.O.Ponomarenko, Yu.V.Ziryanova va boshqalar. Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikka bag‘ishlangan ishlar quyidagi mualliflar tomonidan amalga oshirilgan: Alhabib S., Nur, U., Jones, R., Kaur, R., Garg, S., M.Goodman, G.Weissberger, C.Nguyen, L.Mosqueda, J.Schoen, D.Han, Clark Anna, Zainab Alwani va boshqalar<sup>1</sup>.

Biroq, yuqorida keltirilgan tadqiqotlarning barchasi tor xususiyatga ega bo‘lib, asosan ular amaldagi jinoyat qonunchiligida oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanishidan oldin amalga oshirilgan hamda ushbu mavzuning bugungi kundagi muammolari kompleks o‘rganilmagan. Shu munosabat bilan mazkur masalaning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini kompleks o‘rganish amaliyotda yuzaga kelayotgan ayrim muammolarni bartaraf etish hamda sohani tartibga soluvchi qonunchilik normalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Jinoyat kodeksini takomillashtirish va uni qo‘llash amaliyoti muammolari” ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun jinoiy javobgarlikni takomillashtirish hamda uning kriminologik jihatlarini bilan bog‘liq muammolarni tahlil etish, o‘rganilgan manba va tadqiqot materiallari asosida aniqlangan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan tegishli taklif, tavsiya va xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik tushunchasi, mazmuni va rivojlanishini tahlil qilish;

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikka qarshi kurashishga oid ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy modellarni o‘rganish;

O‘zbekistonda oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikka qarshi kurashish huquqiy mexanizmlarini o‘rganish;

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik jinoyati obyektiv va subyektiv belgilarini tahlil qilish;

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikda jazo va jazo tayinlash masalalarini o‘rganish;

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikning kelib chiqish sabablari, unga shart-sharoit yaratuvchi omillarni tahlil qilish;

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikning kriminologik tavsifi va viktimologiyasini tahlil qilish;

O‘zbekistonda oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik jinoyatini oldini olish muammolari va istiqbollarini tahlil qilish;

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun javobgarlik sohasida jinoyat qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

---

<sup>1</sup> Mazkur olimlarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilash va ularning oldini olish bilan bog‘liq munosabatlar tizimi olingan.

**Tadqiqotning predmetini** oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun javobgarlikni belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo‘llash amaliyoti, ayrim xorijiy davlatlarning qonunchiligi va amaliyoti, kontseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va jinoyat huquqi fanining mavjud huquqiy kategoriyalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishini yozishda umumiy ilmiy uslublar: funktsional yondashuv, mantiqiylik, tizimlilik, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, statistik, sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish kabi metodlardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bolani do‘pposlaganlik, uning sog‘lig‘i qisqa muddatga yomonlashishi yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo‘lmagan muddatga yo‘qolishiga olib kelmagan holda qasddan badaniga yengil, o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazishda ifodalanadigan qilmish uchun alohida jinoiy javobgarlik belgilanishi lozimligi asoslangan;

bolani do‘pposlaganlik, uning sog‘lig‘i qisqa muddatga yomonlashishi yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo‘lmagan muddatga yo‘qolishiga olib kelmagan holda qasddan badaniga yengil shikast yetkazishda ifodalanadigan qilmish birinchi marta sodir etilganida ma‘muriy huquqbuzarlik sifatida belgilanishi lozimligi asoslangan;

birga hayot kechiruvchi oilaning bir yoki bir guruh a‘zolari tomonidan oilaning boshqa a‘zosi jinsiy erkinligi yoki jinsiy daxlsizligiga tajovuz qilishda ifodalanadigan qilmish oiladagi jinsiy zo‘ravonlik sifatida tushunilishi lozimligi asoslangan;

birgalikdagi turmushda oilaning bir yoki bir guruh a‘zolari tomonidan oilaning boshqa bir a‘zosi sog‘lig‘i yoki jismoniy daxlsizligiga tajovuz qilishda ifodalanadigan qilmish oiladagi jismoniy zo‘ravonlik sifatida tushunilishi lozimligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

oilaviy zo‘ravonlikda uy xo‘jaligida foydalaniladigan istalgan buyum bilan tan jarohati yetkazish holati juda ko‘p uchraganligi sababli JK 126<sup>1</sup>-moddasi beshinchi qismini “sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo‘lgan ashyolarni ishlatib sodir etilgan holda” tarzidagi kvalifikatsiyalovchi belgi bilan to‘ldirish zarurati asoslangan;

“oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik” atamasini “uy zo‘ravonligi” yoki “uy xo‘jaligi zo‘ravonligi” tarzid atalqin etilishi lozimligi asoslangan;

O‘zbekistonda oilaviy zo‘ravonlik jinoyati kelib chiqish sabablari va unga shart-sharoit yaratuvchi holatlarni ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy, psixologik sabablar sifatida differentsiatsiya qilish zarurati asoslangan;

milliy jinoyat qonunchiligida oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik jinoyati jabrlanuvchisi sifatida uy xo‘jaligida birgalikda yashayotgan voyaga yetmagan shaxs, shuningdek jismoniy yoki ruhiy holati sababli ojiz ahvoldagi shaxs ham inobatga olinishi lozimligi asoslangan;

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikka oid jinoyat ishlarini ko‘rib chiqishda sudlar tomonidan ayolning yarashuvda amaldagi tengsiz imkoniyati ehtimolini yaxshilab tekshirishi, jamiyatdagi an‘analar hamda yaqinlarning ayolni yarashishga majburlamaganiga ishonch hosil qilishi, zararni qoplashga va huquqni tiklashga doir choralarni sinchiklab o‘rganishlari lozimligi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo‘llash amaliyoti, 400 dan ortiq huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari va professor-o‘qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rov natijalari, 2023–2025-yillardagi oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik jinoyatiga oid statistik ma‘lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirildi hamda olingan xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o‘tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilingan, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, mazkur tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan qoidalar jinoyat huquqi fani nazariyasining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ilmiy izlanishlar asosida ishlab chiqilgan xulosalardan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda, yuridik oliy o‘quv yurtlarida Jinoyat huquqi, Kriminologiya fanlaridan dars o‘tish hamda metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik jinoyati uchun javobgarlikni takomillashtirishga qaratilgan bir qator qoida va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda ifodalanadi. Tadqiqot natijalaridan jinoyat qonunini takomillashtirishda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarini ishlab chiqish amaliyotida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikka qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini tadqiq etish natijalari asosida:

bolani do‘pposlaganlik, uning sog‘lig‘i qisqa muddatga yomonlashishi yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo‘lmagan muddatga yo‘qolishiga olib kelmagan holda qasddan badaniga yengil, o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazishda ifodalanadigan qilmish uchun alohida jinoiy javobgarlik belgilanishi lozimligi to‘g‘risidagi taklif O‘zbekiston Respublikasining JK 126<sup>1</sup>-moddasining ikkinchi qismida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 5-martdagi 3/dn-47-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi nafaqat xotinini (erini), sobiq xotinini (sobiq erini), bir ro‘zg‘or asosida birgalikda yashayotgan shaxsni, shuningdek umumiy farzandga ega bo‘lgan shaxsni, balki bolani ham do‘pposlash, ushbu shaxslarga sog‘liqning qisqa muddat yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo‘lmagan muddatga yo‘qolishiga olib kelmagan qasddan badanga yengil shikast yetkazish, o‘sha harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa jinoiy javobgarlik belgilanishiga xizmat qilgan;

bolani do‘pposlaganlik, uning sog‘lig‘i qisqa muddatga yomonlashishi yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo‘lmagan muddatga yo‘qolishiga olib kelmagan

holda qasddan badaniga yengil shikast yetkazishda ifodalanadigan qilmish birinchi marta sodir etilganida ma'muriy huquqbuzarlik sifatida belgilanishi lozimligi to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasining MJTK 59<sup>2</sup>-moddasining ikkinchi qismida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 5-martdagi 3/dn-47-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi nafaqat xotinini (erini), sobiq xotinini (sobiq erini), bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsni, shuningdek umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsni, balki bolani ham do'pposlash, ushbu shaxslarga sog'liqning qisqa muddat yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo'lmagan muddatga yo'qolishiga olib kelmagan qasddan badanga yengil shikast yetkazish ma'muriy javobgarlik belgilanishiga xizmat qilgan;

birga hayot kechiruvchi oilaning bir yoki bir guruh a'zolari tomonidan oilaning boshqa a'zosi jinsiy erkinligi yoki jinsiy daxlsizligiga tajovuz qilishda ifodalanadigan qilmish oiladagi jinsiy zo'ravonlik sifatida tushunilishi lozimligi to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi natijasida O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining ma'muriy huquqbuzarlik hamda jinoyat ishlari bo'yicha ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2023-yil 20-noyabrdagi 30-sonli qarori preambulasining o'n birinchi xatboshisida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2025-yil 17-martdagi 08/139-25-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi huquqni qo'llash amaliyotida kundalik birgalikdagi hayot (turmush)da oilaning bir yoki bir guruh a'zolari tomonidan boshqa bir a'zosining jinsiy erkinligi yoki jinsiy daxlsizligiga tajovuz qilish bilan bog'liq qilmishlar oiladagi jinsiy zo'ravonlik sifatida tushunilishiga xizmat qilgan;

birgalikdagi turmushda oilaning bir yoki bir guruh a'zolari tomonidan oilaning boshqa bir a'zosi sog'lig'i yoki jismoniy daxlsizligiga tajovuz qilishda ifodalanadigan qilmish oiladagi jismoniy zo'ravonlik sifatida tushunilishi lozimligi to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-noyabrdagi 30-sonli qarorining 3-bandi bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2007-yil 27-iyundagi 6-sonli qarori 1<sup>1</sup>-bandining uchinchi xatboshisida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2025-yil 17-martdagi 08/139-25-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi huquqni qo'llash amaliyotida kundalik birgalikdagi hayot (turmush)da oilaning bir yoki bir guruh a'zolari tomonidan boshqa bir a'zosining sog'lig'i yoki jismoniy daxlsizligiga tajovuz qiladigan g'ayriqonuniy harakatlarning oilaviy (maishiy) jismoniy zo'ravonlik sifatida tushunilishi tushunilishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 9 ta ilmiy ish, jumladan, 5 ta ilmiy maqola (ulardan 2 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo’nalishlariga bog’liqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o’rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog’liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqotni olib borishda foydalanilgan usullar, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e’lon qilinganligi va dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Oilaviy (maishiy) zo’ravonlik tushunchasi, ijtimoiy-huquqiy mazmuni va rivojlanishi”** deb nomlanib, unda oilaviy (maishiy) zo’ravonlik tushunchasi, mazmuni va rivojlanishi, oilaviy (maishiy) zo’ravonlikka qarshi kurashishga oid ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy modellari hamda O’zbekistonda oilaviy (maishiy) zo’ravonlikka qarshi kurashish huquqiy mexanizmlarining o’ziga xos jihatlari yoritilgan.

Dissertantning ta’kidlashicha Yevropada XVII-XVIII asrlardagi gumanistlar harakati davrida ham alohida zo’ravonlik sifatida ko’rilmagan maishiy yoki oilaviy zo’ravonlik XX asr boshlaridagi inson huquqlari harakatlari, shu davrlarda shakllangan ayollarning tenghuquqlilik (feministik) harakatlari natijasida bugungi shaklda jinoyat yoki huquqbuzarlik sifatida shakllangan.

Shuningdek, tadqiqotda asosan O’zbekiston Respublikasi JK 126<sup>1</sup>-moddasida nazarda tutilgan oilaviy zo’ravonlik hodisasini tor va keng ma’nolarda o’rganilganligi, shuningdek asosiy e’tibor ayollarga nisbatan zo’ravonlikka qaratilgani qayd etilgan. Negaki, mazkur “oilaviy zo’ravonlik” tushunchasining shakllanishi va jinoyat-huquqiy mexanizmga aylanishi aynan ayollarga nisbatan zo’ravonlik kontekstidan kelib chiqqanligiga O’zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi O’RQ-829-sonli (“Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi) Qonuni nomlanishi ham ishora qilishiga urg’u berilgan. Bu qarashni JSSTning 2021-yildagi ma’lumotiga ko’ra har 3 ayoldan bittasi umri davmida jismoniy yoki jinsiy zo’ravonlikka uchraganligi, bu zo’ravonlikning aksariyati ularning turmush o’rtog’i yoki u bilan bir uy xo’jaligida birga yashovchi shaxs tomonidan sodir etilganligi fakti ham tasdiqlaydi.

Dissertantning e’tibor qaratishicha garchi milliy huquqdagi “oilaviy (maishiy) zo’ravonlik” nomlanishida “oila” atamasi qo’llanilsa-da, oilaning umumhuquqiy

qabul qilingan tushunchasiga emas, er-xotin (shuningdek, sobiq) va umumiy ro'zg'or atamaları orqali oilaviy zo'ravonlikning sodir etishdagi subyektiv hamda obyektiv chegaralarni belgilaydi.

Oiladagi ayollarga nisbatan zo'ravonlik qadimgi Rimda miloddan avvalgi VIII asrda Romilius qonunida ham aksini topgan. Unga ko'ra erkaklar o'z ayollariga xo'jayin bo'lib, ularni bo'ysunmaganligi, oilasi sha'ni va mulkiga zarar yetkazgani uchun kaltaklash orqali jazolashi, hatto o'ldirishi qonuniy hisoblangan. O'rta asr Yevropasida Katolik cherkovining "Nikoh qoidalari" ham erkakni oiladagi o'z xotini utsidan sudya ekanini va uning an'ana va qoidalarga zid harakati uchun kaltaklab jazolashi mumkinligini belgilagan. Islom huquqi manbalarida zo'ravonlikning taqiqlanishi ta'kidlanadi. Biroq Qur'onning 4:34 oyatida ayol eriga bo'ysunmaganida unga nisbatan jismoniy ishora bilan (*daraba*) ramziy shaklda urish-jazolash mumkinligi anglashiladi. Lekin islom huquqshunoslari bu oyat ayolni urishga emas, jismoniy ishora bilan muammo haqida bildirish va orani tuzatishga imo qilishni bildirishi aytiladi.

1789-yilda Angliyada qabul qilingan "Bosh barmoq qoidasi" (*The rule of thumb*) doktrinasi uy xo'jaligida ayol (er xotinini)ni urishni taqiqlagan. Ikkinchi Jahon urushidan keyingi inson huquqlariga doir rivojlanish, yuqorida ham aytilgani kabi insonlarni jins va ijtimoiy rollar, kelib chiqishidan qat'iy nazar huquqlarga ega bo'lishi va ularni himoya qilishga oid huquqiy mexanizmlar kuchayib borgan. Shunga qaramasdan 1970-yillarga qadar Yevropa va AQShdagi jamiyatlarda ham ro'zg'orda ayollarga nisbatan zo'ravonlik hali jinoyat (ijtimoiy xavfli) sifatida ko'rilmagan. O'tgan asr 70-yillaridagi feminist harakatlari zo'rlash va ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashishda boshqa radikal takliflarni ilgari surishdi. Sanoatlashish va aholi ko'payishi, boshqa iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy o'zgarishlar ayollarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlab, ularga nisbatan zo'rlik normal qabul qilinmasligi tarafdorlari ko'payib bordi. Katta bahslar 1970-yillardan boshlab 1980-yillar oxirlariga kelibgina jiddiy sud-huquq islohotlari zaruriyatini ko'rsatdi. 1979-yilda "uy xo'jaligida zo'ravonlik"ni alohida jinoyat tarkibi sifatida joriy qilgan ilk davlatlardan biri Shvetsiya bo'ldi. 1997-yilda Shvetsiya parlamentida Ayollar tinchligi to'g'risidagi qonun bilan ayollarning tinchini buzishni ham jinoyat tarkibi sifatida belgiladi. Angliyada 1976-yildagi Oilaviy zo'ravonlik va nikoh muzokaralari to'g'risidagi qonun (*Domestic Violence and Matrimonial Proceedings Act 1976*)da ilk bor ochiq-oydin shaklda oiladagi ayolga nisbatan zo'ravonlikni kriminalizatsiya qilindi. 2004-yilda bugun ham oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashning asosi bo'lgan Oilaviy zo'ravonlik, jinoyat va jabrlanuvchi to'g'risidagi qonun (*Domestic Violence, Crime and Victims Act 2004*) qabul qilingan. Bolaga nisbatan zo'ravonlik ham an'anaviy tarzda ota-onaning "tarbiya usuli"ga yo'yib kelingani G'arb jamiyatlarida ham mavjud bo'lgan.

Dissertantning ta'kidlashicha bugungi milliy huquqdagi oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish jinoyati tarkibi (JK 126<sup>1</sup>-m.) butunlay boshqa madaniy kontekstda – Yevropa va Shimoliy Amerikada uzoq muddatda shakllangan bir huquqiy mexanizm, uning ildizlari va kontekstini quyidagi qismlarga ajratish mumkin, degan xulosaga kelgan.

Shuningdek ishda oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashishga oid quyidagi ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy modellar tahlil qilingan: Feminist huquqiy nazariyasi

(Feminist Legal Theory); Inson huquqlari va tenglik nazariyasi; Kamsitish (Intersectionality) nazariyasi; Jinoyat odil sudlovi modeli (Criminal Justice Model); Fuqarolik huquqiy modeli; Ommaviy sog‘lik modeli; Tiklovchi odil sudlov modeli (Restorative Justice Model).

Tadqiqotchining qayd etishicha O‘zbekistonda oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashish huquqiy mexanizmlari Turkistonda sovet hokimiyati o‘rnatilishidan boshlash maqsadga muvofiq. Shunga ko‘ra Muvaqqat Sovet hokimiyati markaziy ijro qo‘mitasi 1917-yil 25-oktabrdagi “Fuqarolik nikohi, bolalar va fuqarolik holati dalolatnomalari kitobini yuritish to‘g‘risida”gi dekret nikohning yangi shartlarini, shu jumladan, bir vaqtning o‘zida faqat bir kishi bilan nikohda bo‘lish qoidasini o‘rnatgan. 1918-yildagi RSFSR Konstitutsiyasi ham erkak va ayollar tengligini e‘lon qilgan, keyinroq qabul qilingan 1924-yildagi SSSR Konstitutsiya ham bu tenglikni e‘tirof etgan. Keyingi 1937, 1978-yillardagi konstitutsiyalar ham bu an’anani davom ettirgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 1992-yildagi Konstitutsiyasida ham, 2023-yildagi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi ham ayollar va erkaklar teng huquqliligini, nikohdagi tenglikni mustahkamlaydi.

Oilaviy zo‘ravonlikka oid jiddiy huquqiy mazmundagi o‘zgarish 2019-yildagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun bilan yuz bergan. Bu qonun ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning mazmunini ruhiy, jismoniy va iqtisodiy shakllarga ajratib aniq tavsiflagan. Ayni oilaviy zo‘ravonlik hodisasi, unga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlari, odatda, JK va MJtKning tegishli normalari bilan ta‘minlanishi nazarda tutiladi. 2023-yildagi oilaviy zo‘ravonlikning alohida jinoyat va ma‘muriy huquqbuzarlik tarkibi sifatida belgilanguniga qadar bu toifadagi ishlar asosan JKning tan jarohati yetkazish, haqorat qilish kabi jinoyat tarkiblari doirasida malakalangan. 2014-yildan boshlab yuritilayotgan alohida statistika zo‘ravonlikka oid raqamlarni aks ettirmaydi, oilaviy zo‘ravonlikka oid ishlar statistikasi sud stastistikasida 2023-yildan boshlab tadqim etila boshlandi. Boshqa tadqiqotlarda bu oraliq vaqtdagi zo‘ravonlik miqdori va sifati bo‘yicha ko‘rsatkichlar turlicha bo‘lib, o‘ta umumiy, ya‘ni bunda ayollarga nisbatan oilaviy zo‘ravonlikdan tashqari shaxsiy hayot daxlsizligini buzish, aldash, nomusga tegish va boshqa qilmishlar ham kiritilgan. Shunday manbalardan biri BMTning gender bo‘yicha 2019-yilga oid tadqiqoti bo‘lib, unga ko‘ra oiladagi zo‘ravonlik holatlari 2019-yil bo‘yicha 35 250 tani tashkil etgan.

O‘zbekistonda 2023-yil aprelgacha bo‘lgan vaqtda oilaviy zo‘ravonlikka oid qilmishlar JKning 104, 105, 109, 110, 112, 115, 121, 129, 136, 140 va boshqa moddalari bilan qamrab olingan. Lekin yuqoridagi moddalarda nazarda tutilgan va sodir etilgan qilmishlarning qanchasi aynan oilaviy-maishiy zo‘ravonlikka oidligini aniqlash imokni yo‘q, zero 2023-yilga qadar oiladagi zo‘ravonliklarga oid jinoyat ishlarining alohida statistikasi yuritilmagan, bu bordagi boshqa tadqiqotlar ham mazmur kamchilikni e‘tirof etgan. Albatta, 2019-yildagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashda juda muhim bir marra bo‘ldi, lekin faqatgina 2023-aprelga kelib, jinoyat-huquqiy mexanizm sifatida alohida oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik jinoyat va ma‘muriy huquqbuzarlik tarkibining kodekslarga kiritilishi bilan oilaviy zo‘ravonlikning milliy jinoyat huquqidagi konsepsiyasi aniq shakllandi. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi O‘RQ-829-son Qonuni bilan Jinoyat kodeksiga maxsus jinoyat tarkibi – oilaviy (mayishiy) zo‘ravonlik

126<sup>1</sup>-modda sifatida kiritildi. Ayni ushbu qonun O‘zbekistonda oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashdashi jinoyat-huquqiy mexanizmlar modelini tubdan o‘zgartirib yubordi. Ushbu Qonun bilan JK 126<sup>1</sup>-moddasi birinchi qismi ruhiy, jismoniy va iqtisodiy zo‘ravonlikni qamrab olsa, boshqa qismlari badan yengil, o‘rtacha og‘ir va og‘ir shikast yetkazish (jismoniy zo‘ravonlik)ni nazarda tutgan. Oilaviy zo‘ravonlik jinoyati subyektiv tomoni to‘g‘ri qasdni tashkil etadi, oilaviy zo‘ravonlik maqsadi jabrlanuvchi xulq-atvorini boshqarish va uni aybdor irodasiga bo‘ysundirish hisoblanadi (Coercive Control). Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayni ushbu umumiy maqsad oilaviy zo‘ravonlik jinoyati subyektiv tomoni xususiyatlarini belgilab beradi, qasdning doim to‘g‘ri qasdligini tushuntiradi. Oilaviy zo‘ravonlik motivlari esa turli-tuman bo‘lib, asosan aybdorning nazorat qilish istagidan kelib chiquvchi nafrat, qasos, jazolash hissi va xusumat ko‘proq uchraydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikka qarshi kurashning jinoyat-huquqiy jihatlari**” deb nomlanib, unda oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik jinoyati subyektiv hamda obyektiv belgilari, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikda jazo va jazo tayinlash masalalariga oid tahlil amalga oshirilgan.

Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik jinoyatini tadqiq etishda jinoyat tarkibining subyektiv belgilari muhim ahamiyatga ega. Yevropa va ingliz huquqiy adabiyotlari esa subyektiv belgilarning 4 muhim belgisini farqlashadi: qasd (Intentionality), bilim (Knowledge), ehtiyotsizlik (Recklessness) va beparvolik (Negligence). Umumiy zo‘ravonlikka oid ilmiy adabiyotlarda zo‘ravonlikning qasddan yoki ehtiyotsizlik bilan sodir etilishi ta’kidlanadi. Oilaviy zo‘ravonlik qilmishidagi subyektiv tomonni qasd ekanligi, shuningdek, bu ko‘pincha to‘g‘ri qasddan amalga oshirilishi mantiqlidir. Masalan, Buyuk Britaniyada 2021-yilda qabul qilingan Oilaviy zo‘ravonlik qonuni (Domestic Abuse Act 2021) ham ushbu qilmishdagi aybni aynan nazoratni qo‘lga olishdagi qasd shaklida ifodalagan.

Ushbu bobda dissertant oilaviy zo‘ravonlikka oid sud hukmlarini tahlil qilib, zo‘ravon jabrlanuvchini urish, unga jismoniy zo‘rlik ishlatishda to‘g‘ri qasdda bo‘lgan, uni urish orqali o‘z maqsadiga, ya’ni uning xulq-atvorini nazorat qilishga yetmoqchi bo‘lganligini ta’kidlagan. Shuningdek, oilaviy zo‘ravonlikning boshqa shakllari – ruhiy, iqtisodiy zo‘ravonlikda ham ayb shakli faqatgina to‘g‘ri qasd bo‘lishi ta’kidlangan. Motivlar mazmuniga ko‘ra farqlash, masalan, g‘araz, zo‘rlik ishlatish istagi kabi, garchi ancha bahsli bo‘lsa-da, oilaviy zo‘ravonlikda asosan ruhiy va jismoniy zo‘ravonlik qilish istagi, oilaviy kelishmovchilikdan kelib chiqadigan xusumat va nafrat odatda ustunlik qiladi. G‘arazning oilaviy zo‘ravonlik holatlarida asosiy motiv bo‘lishi istisno qilinmaydi, u kam hollarda bo‘lsa-da mavjud bo‘lishi mumkin.

Dissertantning fikricha O‘zbekiston sudlaridagi oilaviy zo‘ravonlik jinoyat ishlariga oid amaliyot albatta asosiy (mainstream) konsepsiya bo‘lgan nazorat konsepsiyasini tasdiqlaydi. Sud amaliyotidagi 200 ta jinoyat ishining 52%ida ish hujjatlari zo‘rlik maqsadini bo‘ysundirish va o‘z qarorini tasdiqlash, jabrlanuvchi xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish kabilar bilan belgilagan.

Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik jinoyatida eng ko‘p qo‘llaniladigan zo‘rlik bu jismoniy zo‘rlik ishlatishda ifodalanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-noyabrdagi 30-son qarorida oilaviy (maishiy) jismoniy zo‘ravonlik kundalik birgalikdagi hayot (turmush)da oilaning bir yoki bir guruh

a'zolari tomonidan boshqa bir a'zosining sog'lig'i yoki jismoniy daxlsizligiga tajovuz qiladigan g'ayriqonuniy harakatlar deya ta'riflangan.

Ushbu jinoyat obyekti va obyektiv belgilarini tadqiq etishda eng muhim quyidagi tushunchalarga aniqlik kiritish va farqlab olish kerak bo'ladi: oila, ro'zg'or (turmush), uy xo'jaligi, qarindoshlik va umumiy farzandga ega shaxslar. Garchi fakultativ belgi hisoblansa-da, boshqa zo'rlik ishlatib sodir etiladigan o'xshash jinoyatlardan farqlovchi asosiy jihat bo'lganligi sababli, aynan oilaviy (maishiy) sharoitlarda sodir etilishiga hamda jabrlanuvchi shaxsiyati va uning subyekt bilan o'zaro munosabatlariga oid tafsilotlar juda muhim.

Qilmishning obyektiv jihatlarini tahlil qilgan holda dissertant jismoniy shakldagi oilaviy zo'ravonlik sog'lig'i yoki jismoniy daxlsizligiga tajovuz qiladigan g'ayriqonuniy harakatlarda ifodalanib, jabrlanuvchi badaniga turli (yengil, o'rtacha og'ir va og'ir) shikast yetkazilishiga olib keladi, deb xulosa qilgan. Bu jabrlanuvchi tanasiga zo'ravon o'z tana a'zolari (qo'l yoki oyoq bilan urish), maishiy ro'zg'or buyumlari (ko'pincha pichoq, o'tmas buyum, idish, ketmon, bolta va hk.) yoki boshqa jismlar bilan jarohat yetkazishda ko'rinadi. Sud amaliyotidagi jinoyat ishlarining barchasi (450 jinoyat ishlari) aynan jismoyini zo'rlik ishlatish bilan sodir etilgan. Bunda asosan yengil (52%), o'rtacha og'ir (34%) va og'ir shaklda (13%) badanga shikast yetkazish holatlariga ajratiladi.

Dissertantning nazdida ushbu bobdagi tahlillardan kelib chiqib, jabrlanuvchi shaxsiyati va subyekt bilan munosabatlari hamda oilaviy zo'ravonlik sharoitlariga oid tushunchalarni aniqlashtirish va bir oz kengaytirish mumkin. Nafaqat er va xotin, balki voyaga yetmagan shaxs yoki ojiz ahvoldagi shaxsni ham qamrab olishi maqsadga muvofiq, masalan mazkur uy xo'jaligidagi yosh bola yoki kasalligi sababli muomalaga layoqatsiz yoki nogiron shaxs (qari shaxs)ni olish mumkin. Bu kabi oila yoki uy xo'jaligida yuz beradigan zo'ravonlikning boshqa zo'ravonlikdan turli o'lchamlar bo'yicha farqi va aniqlash hamda odil sudlovga tortishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun mazkur toifadagi shaxslarni ham jinoyat tarkibiga (jabrlanuvchi, obyekt) kiritish bugungi kunda juda dolzarb.

Dissertant oilaviy zo'ravonlik jinoyatida jazoning mazmuni, uning muqobil variantlari, masalan yarashuv instituti mohiyatini chuqurroq o'rganishga hamda shu orqali oilaviy zo'ravonlik jinoyatini tushunish, unga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy va kriminologik mexanizmlarini takomillashtirishga uringan. Uning fikricha, oilaviy zo'ravonlikda jabrlangan shaxs uchun sog'ligini tiklash va zo'ravon tomonidan zararni qoplash, jamoat va jabrlanuvchi oldida pushaymonligini bildirish, hamkorlikni tiklash (agar jabrlanuvchi bunga rozi bo'lsa va istasa) muhimroq ko'rinadi, zo'ravonni shunchaki formal jazoga tortish jazoning maqsadlariga erishishga doim ham olib kelmaydi.

Oliy sud ma'lumotlariga ko'ra 2023-yilda sudlarda JK 126<sup>1</sup>-modda bo'yicha jami ko'rib chiqilgan ishlar soni 421 tani tashkil etadi. Muhimi ushbu 421 ta ishdan 170 (40%) tasi bo'yichagina ayblov hukmlari chiqarilgan, qolgan 251 ta (60%) ish yarashuv (JK 66<sup>1</sup>-moddasi), ya'ni restorativ odil sudlov bo'yicha ish tugatilgani ko'rinadi. Jazolardan eng ko'p qo'llanganlari: 64 ta jinoyat ishi bo'yicha ozodlikni cheklash, 64 ta jinoyat ishi bo'yicha axloq tuzatish ishlari, 43 ta jinoyat ishida ozodlikdan mahrum qilish, 9 ta holatda shartli hukm, 6 ta holatda jarima va boshqa jazolar qo'llanilgan.

Ko‘rinib turibdiki, oilaviy zo‘ravonlik bo‘yicha sudlarda ko‘rib chiqilgan jinoyat ishlarining 60%dan ortig‘i JK 66<sup>1</sup>-moddasi bo‘yicha tomonlarning yarashuviga ko‘ra tugatilgan. Oilaviy zo‘ravonlikda yarashuv kabi restorativ tiklovchi choralarani qo‘llash va jazolamaslik juda bahsli. Bir tomondan, oilaviy zo‘ravonlikda jabrlanuvchi va jinoyat sodir qilgan shaxs deyarli doim yaqin va qarindosh shaxslar bo‘lishadi. Dissertant tadqiq qilgan jinoyat ishlarining barchasida jabrlanuvchilar ayol kishi va sudlanuvchi bilan nikohdagi yoki sobiq nikohda bo‘lgan shaxslardir. Aksariyat hollarda (72%) esa ular bir ro‘zg‘or – uy xo‘jaligida yashashadi va ko‘pincha (65%) ular umumiy farzandlarga ega. Bu holatda zo‘ravonlik sodir etgan shaxs bilan yarashish imkoniyati juda yuqori.

Tadqiq etilgan jinoyat ishlarida sudlar bu obyektiv omillar va yengillashtiruvchi holatlarni inobatga olgan holda, asosiy e‘tiborni aynan jabrlanuvchi bilan yarashishga uning sudlanuvchiga e‘tirozi bor-yo‘qligiga qaratganligi yaqqol ko‘rinadi. Bu esa sudlar oilaviy zo‘ravonlik ishlarini bir oilaning ichki ishi kabi yondashishini ham istisno etmaydi. Buning isboti sifatida sud hukmlari va qarorlar (ajrimlar)ida oilaning yarashishi va farzandlar borligiga, shuningdek, jabrlanuvchi va sudlanuvchi zo‘ravonlikka qadar turmush kechirganligi holatiga alohida e‘tibor qaratishi va jazo tayinlashda inobatga olishini keltirish mumkin. Dissertant oilaviy zo‘ravonlikda jazo bilan bog‘liq ikki muammoga e‘tibor qaratgan: yarashuv institutini qo‘llash hamda jazo tayinlashda obyektiv omillarni inobatga olishdagi murakkabliklar.

Dissertatsiyaning **“Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikka qarshi kurashning kriminologik jihatlari, muammolari va istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobi oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikning kelib chiqish sabablari, unga shart-sharoit yaratuvchi omillar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikning kriminologik tavsifi va viktimologiyasi, O‘zbekistonda oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik jinoyatining oldini olish muammolari va istiqbollariga bag‘ishlangan.

Unda qayd etilishicha har bir jamiyat o‘ziga xos bo‘lib, undagi jinoiy hodisalar sabablari va shart-sharoitlari boshqasinikidan keskin farq qiladi. Eng muhimi bu kabi kontekstual tizim doimiy o‘zgarib ham boradi: kecha bir jinoiy hodisa sababi bo‘lgan boshqa hodisa o‘zgarib (yo‘q bo‘lib), uchinchi bir hodisaga ulanib ketadi. Lekin shu bilan birga, jinoyatchilik, ayniqsa oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik keng ta’sirli, jamiyat kundalik hayotida muhim bo‘lgani sababli uni sezmaslik, ehtimoliy sabablarni ko‘rmaslik ham mumkin emas.

Oilaviy zo‘ravonlik jinoyati kelib chiqishi sabablari va unga sharoit yaratuvchi holatlar bo‘yicha turli konsepsiya va qarashlar mavjud bo‘lib, ular muayyan jamiyatning ijtimoiy-madaniy kontekstiga bog‘liqdir. Dissertantning fikricha O‘zbekistonda oilaviy zo‘ravonlik jinoyati kelib chiqish sabablari va unga shart-sharoit yaratuvchi holatlarning ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy, psixologik sabablari ajratilgan – ijtimoiy-madaniy sabablar: qadriyatlar va ijtimoiy rollar (xotin, ona, ota, oila boshlig‘i va hk.), patriarxal ustunlik va hukmronlik, oiladagi nazorat va jazolash imkoniyati, ichkilikbozlik va qadriyatlardan og‘ish; iqtisodiy sabablar: daromadlar kamligi, yetishmavochilik va ishsizlik; psixologik sabablar: tushkunlik, agressiya, psixologik kasalliklar.

Ayollarga muayyan rollarni taqdim etadigan, ularni nazorat qilishni ta’minlovchi ijtimoiy normalar zo‘ravonlikni ta’minlaydi. An’anaviy gender rollari, ya’ni oiladagi ayolni (bolani yoki boshqa ojiz shaxsni) muayyan rol bilan

identifikatsiya qilish, masalan, ayolni faqatgina uyda bola paravarishi va ovqat qilishi kerak, oiladagi muhim qarorlarni er hal qilishi lozim, degan norma va qadriyatlar zo‘ravonlikka zamin yaratishi mumkin. Shuningdek, oilaviy zo‘ravonlik sabablarini iqtisodiy tushuntirish ham mumkin bo‘lib, kambag‘allik, ishsizlik va tengsizlik, iqtisodiy beqarorlik oilaviy zo‘ravonlikning muhim sabablari sifatida ko‘riladi.

Oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashish, uning oldini olishda ushbu jinoyatning sodir etilishidagi kriminologik va viktimologik tavsifini o‘rganish va tushunish juda muhim.

Dissertant oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik jinoyatlari geografiyasini ishlab chiqqan, unga ko‘ra jinoyat asosan qishloq joylarda sodir etilishi ko‘rinadi. Oilaviy zo‘ravonlik jinoyatlari eng ko‘p Farg‘ona (111 jinoyat ishi), Toshkent (78 jinoyat ishi) hamda Namangan (53 jinoyat ishi) viloyatlarida sodir etilgan. Toshkent shahrida esa, garchi aholi soni boshqa hududlardan ko‘proq bo‘lsa-da, 16 oilaviy zo‘ravonlik jinoyati ko‘rib chiqilgan. Bundan ko‘rinadiki, mazkur hududlarda, ayniqsa qishloq joylarda ijtimoiy-madaniy muammolar (qadriyatlar almashinuvi, ichkilikbozlik, oilada qaror qabul qilishdagi nizolar), iqtisodiy muammolar (ishsizlik, tengsizlik, qashshoqlik va hk.), hamda psixologik zo‘riqishlar ko‘proq uchraydi va ko‘proq zo‘rluk ishlatishgacha yetib boradi.

Oilaviy zo‘ravonlik jinoyati indeksi ham aynan aholi zich joylashgan, ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda yuqori ekani oilaviy zo‘ravonlik hodisasini kriminologik tavsiflashda turli hududlar va jamoalarda turlicha ekaniga alohida urg‘u berish lozim, degan xulosaga kelgan dissertant Farg‘ona, Toshkent va Namangan viloyatlarida, ayniqsa ularning qishloq hududlarida ayollar ta‘limi darajasi, ishsizlik hamda mahalliy jamoalarda (ayniqsa qishloq jamoalarida) qat‘iy madaniy-ijtimoiy normalar (ayollarning aniq vazifalarini belgilash, ularning huquqlarini cheklash kabi) bu borada muhim kriminologik determinantlar sifatida olinishi kerakligini ta‘kidlagan. Aksincha, Toshkent shahrida oilaviy zo‘ravonlik darajasi anchagina pastligi poytaxtda iqtisodiy imkoniyatlar qishloqdan yuqoriligi, ta‘lim va himoyalani darajasi yaxshiroqligi bilan ham izohlanishi mumkin.

Yana bir muhim jihati shuki, qishloq joylarda sodir etilayotgan oilaviy zo‘ravonlik jinoyatlari darajasi ham og‘irroq, ya‘ni badanga shikast yetkazishning o‘rtacha og‘ir va og‘ir holatlari aksariyati qishloq hududlarga to‘g‘ri keladi. Oilaviy zo‘ravonlik jinoyati darajasini sifat jihatdan o‘rganish natijalariga ko‘ra Toshkent, Farg‘ona va Qashqadaryo viloyatlarida tan jarohati og‘irroq darajada ekanini ko‘rsatadi.

Afsuski, oilaviy zo‘ravonlik 2023-yil aprel oyida kriminalizatsiya qilingani sababli hozircha bu jinoyat dinamikasini ishonchili tarzda aniqlash mushkul. Lekin, ungacha bo‘lgan ayollarga qarshi zo‘rluk va tayziq ishlatishga doir umumiy statistikaga qaralsa, umumiy dinamika nisbatan barqarorligi ko‘rinadi, ya‘ni 2023-yil davomida 2 638 jinoyat ishlari ko‘rilgan bo‘lsa, 2024-yil birinchi yarmida 1 332 jinoyat ishlari ko‘rilgan. Oilaviy zo‘ravonlik jinoyatlari dinamikasi ham hozircha barqaror qolishda davom etmoqda.

Jinoyat vaqti va joyiga oid kriminologik tavsiflar oilaviy zo‘ravonlikning o‘ziga xos jihatlarini ochib bergan, unga ko‘ra oilaviy zo‘ravonlik jinoyatlarining aksariyati (83%), boshqa zo‘ravonlik jinoyatlaridan keskin farq qilgani holda, kunduz vaqtida, shuningdek, bularning 74%i uy-joy binosi ichida yoki hovlisida sodir etilgan, qolgan kamroq qismi esa yo‘lda, ko‘chada va boshqa joylarda sodir

etilgan. Jismoniy zoʻrlik ishlatilgan oilaviy zoʻravonlik jinoyatlarining aksariyati (62%) qoʻl va oyoqlar bilan zarba berish bilan boʻlsa, uchdan bir qismida (32%) uyda roʻzgʻorda foydalaniladigan buyumlar (oshxona pichogʻi, temir buyum, stolstul va hk.) qurol sifatida ishlatilgan.

2023-yilda oilaviy zoʻravonlik jinoyati sodir etgan shaxslarning aksariyati – 118 tasi *14-30 yosh oraligʻidagi yoshlardir* (60 yoshdan katta yoshlilar soni 10 ta). Shuningdek, ularning yarmiga yaqini (sud hukmlari sifat jihatidan tahlil qilinganidan olingan natija, bu barcha jinoyat ishlarini qamrab olmaydi) vaqtincha ishsiz ekan, 70%ga yaqini esa oʻrta yoki oʻrta-maxsus maʼlumotli ekani maʼlum boʻlgan. Albatta, demografik nuqtai nazardan yoshlar aholining koʻprogʻini tashkil etib turgan jamiyatda zoʻravonlik jinoyatlari ham shu yoshlar hissasiga toʻgʻri keladi, qolaversa oʻzi har qanday zoʻrlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar asosan 20-35 yoshlar oʻrtasidagi shaxslar tomonidan sodir etilishi dunyodagi koʻplab jamiyatlarga ham xos.

Oilaviy zoʻravonlik jinoyatini sodir etuvchi shaxs shaxsiyati yigʻindisi: 20-35 yosh erkak; oilada ijtimoiy maqoʻini oshirishga harakat qiladi; ishsiz yoki daromadlari kamroq; asosan qishloq hududlarda yashaydi; maʼlumoti oʻrta yoki oʻrta maxsus; psixologik holati beqaror, tez agressiyaga kirishadi; yaqin qarindoshlari va jamoatchilik bosimini jiddiy qabul qiladi va hokazo.

Jabrlanuvchi shaxsi va holatiga oid tadqiqot koʻrsatadiki, 2023-2024-yillarda sodir etilgan oilaviy zoʻravonlik jinoyati ishlarining barchasi (100%)da jabrlanuvchilarni ayol jinsiga mansub shaxslar tashkil etadi. Jinoyat sodir etgan shaxslar esa 93% erkaklar hamda 7%ida erkaklar bilan birga ayollar ishtirokchi sifatida yoki asosiy bajaruvchi sifatida namoyon boʻlgan.

Jabrlanuvchilarning yoshi eng koʻpchiligi (64%) 20-35 yoshni, keyingi toifa 35-75 (23%) va undan kattaroq yoshni tashkil etadi.

Jabrlanuvchi shaxsining viktimologik tipologiyasi ham oilaviy zoʻravonlikni tushunishda ahamiyatli hisoblanadi. Dissertant oilaviy zoʻravonlik jabrlanuvchilarini quyidagi tiplarga ajratishni taklif etgan: agressiv jabrlanuvchi tipi, bu turdagi jabrlanuvchilar oʻzlarining gʻayrihuquqiy harakatlari (yoki harakatsizligi) bilan, masalan, jinoyat sodir qiluvchi shaxsga birinchi boʻlib, jismoniy kuch ishlatishi, uning qadr-qimmatini kamsitishi (haqorat) kabi, oilaviy zoʻravonlik jabrlanuvchisi boʻlishiga olib keladi. Faol jabrlanuvchi tipi esa, garchi oʻz harakatlari bilan zoʻravonlikni keltirib chiqarishga toʻgʻridan-toʻgʻri sababchi boʻlmasa-da, u zoʻravonlik xavfini koʻra turib undan qochish va qutilishga harakat qilmaydi, yordam olmaydi va zoʻravonlik sodir etilishiga qarshilik qilmaydi.

Oʻtkazilgan soʻrov tahliliga koʻra oʻrtacha 62% xotin-qizlar ruhiy zoʻravonlik holatida, 48% esa jismoniy zoʻravonlik holatida ham zoʻravonlikdan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilmasliklarini bildirgan. Bu shuni anglatadiki, oilaviy zoʻravonlik jabrlanuvchilari hozircha kam hollarda huquqiy himoya soʻrab murojaat qilmoqda va bu ham oilaviy zoʻravonlikning latentligiga olib kelmoqda. Latentlikning asosiy sabablaridan biri boʻlgan jabrlanuvchining yashirishiga oid hodisani oʻrganish, ayniqsa, Oʻzbekistondagi kriminologik va ijtimoiy kontekstda gʻoyat muhim.

Oilaviy zoʻravonlikning oldini olishga toʻsiq boʻluvchi va uning latentligini oshiruvchi eng muhim obyektiv holat bu uy xoʻjaligi va oilaning uchinchi shaxslar uchun yopiqligidir. Odatda, boshqa jamiyatlarda ham uy xoʻjaligi va oila jipsligi

uning jamiyatdagi boshqa birliklar, masalan, butun bir guruh, jamiyat, undagi boshqa tashkilotlar, davlat, uyushmalar va boshqalar bilan munosabatlaridagi chegara anchagina qat'iy hamda to'siqlar ko'p. Shu sababli ham muayyan oila yoki uy xo'jaligi ichida sodir bo'layotgan hodisalar jamiyat va davlat e'tiboridan chetda bo'ladi hamda zo'ravonlikning oldini olishnigina emas, uning sodir bo'lganlik faktini aniqlashni ham qiyinlashtiradi.

Zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan himoya orderlari tizimi yangi mexanizm bo'lib, ichki ishlar organlari xodimlarining bu kabi himoya mexanizmi bilan ishlash tajribasi va malakasi, uning maqsad va vazifalarini tushunishi katta ahamiyatga ega. Hozirgi himoya orderi tizimining muhim muammolaridan biri bu undagi taqiqning buzilishi, masalan, potensial zo'ravonga jabrlanuvchi bilan aloqa yoki zo'ravonlik qilishni taqiqlashi tartibini buzilishi to'g'ridan-to'g'ri zo'ravonlik deb hisoblanmaydi va ma'muriy javobgarlik keltirib chiqaradi. Bu o'rinda himoya orderi talablarini buzish mazmunan zo'ravonlik yoki unga suiqasd bilan tenglashtirilishi va nisbatan og'irroq choralar ko'rilishi mumkin, masalan AQShdagi kabi tezkor hibis va keyinroq tegishli ma'muriy javobgarlikka tortish kabi.

Sud amaliyoti hujjatlari tahlili oilaviy zo'ravonlik sabablari va sharoitlarini aniqlash uchun muhim empirik baza bo'lib, ular madaniy omillarning psixologik omillarga ta'siri va o'zaro bir-birlariga ulanib ketishini tasdiqlamoqda. Yana shuni ta'kidlash lozimki, oilaviy zo'ravonlik jinoyatlari ko'p holatlarda oldindan rejalashtirilmaydi, ularning maishiy xarakteri ham shunda namoyon bo'ladi. Ya'ni, zo'rlik ishlatish, garchi madaniy-ijtimoiy omillarga tayansa-da, ko'pincha motivlar to'satdan paydo bo'ladi. "O'zaro janjallashib" deya ta'riflangan va uning oqibatida zo'ravonlik kelib chiqqan hodisalarning asosiy qismi aynan ayollarning tasavvur qilinadigan "roli va majburiyatlari"ga borib taqaladi

Yana bir muhim chora-tadbir bu aholi o'rtasida aynan oilaviy zo'ravonlikka ta'sirchan, undan jabr ko'rish xavfi yuqori bo'lgan qatlam bilan manzilli ravishda kompleks profilaktika va yordam ishlarini olib borish, doimiy aloqa qilishdan iborat. Masalan, AQShda tahlillarga ko'ra zo'ravonlikka eng ta'sirchan bo'lgan aholi qatlami bu kambag'al migrant ayollar bo'lib, bu migrant ayollar ham kelib chiqish mamlakatiga ko'ra alohida ajratilgan. Eng kambag'al va kelib chiqish joyiga ko'ra oiladagi zo'ravonlik madaniyati kuchli bo'lgan ayollar alohida nazoratga olinadi, ularga oilaviy zo'ravonlik mazmuni, bu holatda nima qilish lozimligi, yordam olish va ariza berish tartibi tushuntirilib, ularga tegishli zaruriy ko'mak beriladi.

Hozirda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bir qator choralari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-maydagi PQ-175-son "Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-maydagi 292-son "Mahalla yettiligi" faoliyatini samarali tashkil etish hamda hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bo'yicha baholashda mahalla raisining ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan chora-tadbirlar ham ayni xotin-qizlarni oilaviy zo'ravonlikdan himoya qilishga qaratilib, bu turdagi zo'ravonlikning oldini olishda muhimdir.

Oilaviy zo'ravonlik jinoyatlari demografiyasi va jinoyat sodir etuvchi shaxsiyatiga kelsak, bu bo'yicha ma'lumotlar demografik holatga bog'liqligi

ko‘rinadi. 2023-yilda oilaviy zo‘ravonlik jinoyati sodir etgan shaxslarning aksariyati – 118 tasi 14-30 yosh oralig‘idagi yoshlardir (60 yoshdan katta yoshlilar soni 10 ta).

Oilaviy zo‘ravonlikning oldini olishga doir keyingi muammo iqtisodiy va ijtimoiy mazmunga ega bo‘lgan murakkab huquq va majburiyatlarning kompleksini tashkil etadi. Bu, avvalo, oila yoki uy xo‘jaligidagi ayrim a‘zolar, ayniqsa, ayollarning ishsizligi, ta‘lim darajasi pastligi va boshqa sabablar tufayli iqtisodiy jihatdan oilaning boshqa a‘zolariga qaramligida aks etadi. “Erkak – oila boquvchisi” degan umumiy norasmiy madaniy qoida O‘zbekiston jamiyatida keng ildiz otgan. Oiladagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlaragi taqsimot, albatta, oila a‘zolarining o‘z erkinligidir. Bunda ular kim farzandlar tarbiyasiga mas‘ul bo‘lishi va kim iqtisodiy ta‘minotga mas‘ul bo‘lishini erkin belgilaydi. Lekin, ko‘plab oilalarda, ayniqsa, iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan sharoitlarda oilaviy nizolarga, xatto zo‘ravonlikka yetib borishi mumkin.

Tadqiqotga ko‘ra oilaviy zo‘ravonlikni oldini olish, profilaktika qilishga oid quyidagi muammolar mavjud: oilaviy zo‘ravonlikning ko‘pincha latentligi; ijtimoiy-madaniy normalarning bosimi mavjudligi; bu jinoyat sodir bo‘ladigan muhitning yopiqligi; huquqiy mexanizm va institutlarning yo‘qligi; oila va ro‘zg‘ordagi iqtisodiy qaramlik; zo‘rlikdan qutulish uchun yetarli himoyaning yo‘qligi; axborot va tadqiqotlar yetishmasligi.

Oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish choralari umumiy va maxsus kriminologik shakllarga ajratilgan: umumiy oldini olish choralari bu iqtisodiy yordam, jabrlanuvchilarga himoya va yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatish hamda murojaat qilish imkoniyatlarini berish, mahalla va jamoatchilik tomonidan zo‘ravonlik xavfi mavjud toifadagi qatlam uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish, zamonaviy texnologiyalar yordamida turli xil navigatsiya va xabar berish imkoniyatlarini berish kabilaridir; maxsus kriminologik choralarga himoya orderlari berish, zo‘ravonlik xavfini tahlil qilish va profilaktika qilish, oilaviy zo‘ravonlik jinoyati dinamikasini kuzatib borish va xavf guruhlari bilan ishlash, oilaviy zo‘ravonlik ma‘muriy huquqbuzarligini jinoyatga aylanmasligi uchun har bir ma‘muriy huquqbuzarlikni maxsus xavf tahlili axborot markazida to‘plash va tahlil qilib borish kabilar kiradi.

## **XULOSA**

Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikka qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini tadqiq qilish natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

### **I. Jinoyat huquqi va kriminologiya nazariyasini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar:**

1. Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik shaxsni muayyan bir madaniy-ijtimoiy maqomi, roli, jinsi va boshqa xususiyatlariga ko‘ra kamsitish, bunday maqom o‘rnatuvchi madaniy tizimlar qoidalariga rioya qilishga majburlashning eng keng tarqalgan shaklidir. Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikka qarshi kurash mexanizmi sifatida oilaviy zo‘ravonlik jinoyati tarkibi Feminist huquqiy nazariyasi (Feminist Legal Theory), Kamsitish (Intersectionality) nazariyasi, inson huquqlari kabi bir qancha ilmiy konsepsiyalarga asosan shakllangan.

2. Dunyoda oilaviy zo‘ravonlikka qarshi jinoyat-huquqiy mexanizmlarning asosan 2 mazmuni ajratiladi: 1) zo‘ravonlik jinoyatlari umumiy asoslarida oiladagi

zo‘ravonlikka qarshi kurashish, 2) oilaviy zo‘ravonlikka oid maxsus normalar, qo‘shimcha belgilar yoki alohida jinoyat tarkibi kiritish. Oilaviy zo‘ravonlikka oid maxsus jinoyat tarkibi, qo‘shimcha belgilar kiritish esa ancha yangi tendensiya bo‘lib, u jinoyat qonuniga alohida oilaviy zo‘ravonlik qilmishiga oid maxsus tarkib kiritish yoki umumiy zo‘ravonlikka oid jinoyat tarkiblariga maxsus qo‘shimchalar kiritishda ifodalanadi.

3. Oilaviy zo‘ravonlikni alohida jinoyat tarkibi ekanini quyidagi muhim farqlar bilan belgilash lozim: a) oilaviy zo‘ravonlik jamiyatdagi muhim va yopiq muhit bo‘lgan oila yoki uy xo‘jaligi ichida ro‘y beradi; b) oilaviy zo‘ravonlik doim ijtimoiy jihatdan juda yaqin shaxslar, ko‘pincha nikoh yoki boshqa asosda qarindosh shaxslar, er-xotin yoki umumiy ro‘zg‘or asosida yashovchi shaxslar yoxud umumiy farzandga ega shaxslarga nisbatan sodir etiladi; v) bu oila va uy xo‘jaligiga oid norasmiy ijtimoiy normalar qonun o‘rnatgan huquq va erkinliklarni cheklashi, unga rioya qilishga majburlashi hamda zo‘rlik ishlatilgan shaxslarning yordam olishini cheklashi mumkin.

4. Ruhiy zo‘ravonlik jabrlanuvchiga ruhiy-psixologik bosimda ifodalanib, uni haqorat qilish, har qanday oqibatlar, shu jumladan jismoniy kuch ishlatish, sirlarini oshkor qilish, tuhmat qilish (real bo‘lishi sharti bilan) bilan qo‘rqitish, huquqlarini amalga oshirishga jismoniy kuch ishlatmasdan to‘sqindik qilish, gap-so‘z va imo-ishora shaklida tahqirlash yoki boshqa shaklda qadr-qimmatini kamsitish, yaqin qarindoshlari (farzandi, ota-onasi va hk.)ga nisbatan zo‘rlik bilan qo‘rqitish yoki ularni kamsitish kabi keng tafsifdagi harakatlarda ifodalanadi.

5. Jismoniy shakldagi oilaviy zo‘ravonlik sog‘lig‘i yoki jismoniy daxlsizligiga tajovuz qiladigan g‘ayriqonuniy harakatlarda ifodalanib, jabrlanuvchi badaniga turli (yengil, o‘rtacha og‘ir va og‘ir) shikast yetkazilishiga olib keladi. Bu jabrlanuvchi tanasiga zo‘ravon o‘z tana a‘zolari (qo‘l yoki oyoq bilan urish), maishiy ro‘zg‘or buyumlari (ko‘pincha pichoq, o‘tmas buyum, idish, ketmon, bolta va hk.) yoki boshqa jismlar bilan jarohat yetkazishda ko‘rinadi. Tadqiq etilgan sud amaliyotidagi jinoyat ishlarining barchasi (450 ta jinoyat ishlari) aynan jismoniy zo‘rlik ishlatish bilan sodir etilgan. Bunda asosan yengil (52%), o‘rtacha og‘ir (34%) va og‘ir shaklda (13%) badanga shikast yetkazish holatlariga ajratiladi.

6. Oilaviy zo‘ravonlik juda ko‘p holatlarda jabrlanuvchining yaqinlari ko‘z o‘ngida sodir etilishi bu qilmishni og‘irlashtiruvchi holat sifatida o‘ta shafqatsizlik bilan sodir etilgan deb topilishi masalasi muammoli sanaladi (JK 126<sup>1</sup>-moddasi beshinchi qismi “v” bandi). Xuddi shuningdek, oilaviy zo‘ravonlikda uy xo‘jaligida foydalaniladigan istalgan buyum bilan tan jarohati yetkazish juda ko‘p uchraydi va bu sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo‘lgan ashyolarni ishlatib sodir etilgan, deb topilib JK 126<sup>1</sup>-moddasi beshinchi qismi “i” bandi bilan kavalifikatsiya qilishni taqozo etadi.

7. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, oilaviy zo‘ravonlik jinoyati obyektidagi jabrlanuvchi shaxsiyati, uning subyekt (aybdor) bilan munosabati (qarindoshlik, nikoh va hk.) oiladan ko‘ra kengroq, asosan shaxsiy va madaniy mazmundagi munosabatlar ekani oydinlashadi. Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik atamasi mazmunan rus tilidagi “*семейно-бытовое насилие*” atamasidan olingan bo‘lib, ingliz tilidagi “*domestic violence*” mazmunidan chalg‘itishi mumkin. Ingliz tilidagi atamani o‘zbek tilida “uy zo‘ravonligi” yoki “uy xo‘jaligi zo‘ravonligi” deb tarjima qilish maqsadga muvofiq. Zero bu jinoyat obyektidagi mazmun oila emas, muayyan

makonda birga yashayotgan yoki yashagan shaxslar, shuningdek ularning subyekt bilan munosabatlari – rasmiy yoki norasmiy nikoh asosida yoki bunday munosabatlarsiz ham umumiy farzandga ega bo‘lganligi faktidan iborat.

8. Oilaviy zo‘ravonlik jinoyati obyektini nafaqat er va xotin (yoki shu mazmundagi munosabatlarda bo‘lgan erkak va ayol), balki voyaga yetmagan shaxs yoki o‘z ahvoldagi shaxsni ham qamrab olishi maqsadga muvofiq, masalan mazkur uy xo‘jaligidagi yosh bola yoki kasalligi sababli muomalaga layoqatsiz yoki nogiron shaxs (qari shaxs)ni olish mumkin. Bu kabi oila yoki uy xo‘jaligida yuz beradigan zo‘ravonlikning boshqa zo‘ravonlikdan turli o‘lchamlar bo‘yicha farqi va aniqlash hamda odil sudlovga tortishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun mazkur toifadagi shaxslarni ham jinoyat tarkibiga (jabrlanuvchi, obyekt) kiritish taklif etiladi.

9. Tiklovchi adolat – Restorative justice konsepsiyasi esa retributiv jazolash tizimidan farqli o‘laroq mahkumni jazolashdan ko‘ra jabrlanuvchi huquqlarini tiklash, ularning o‘zaro kelishuvi hamda jamoatchilik ishtirokida mahkumning qilmishidan pushaymonligini tasdiqlash, o‘zaro kelishuv va zararlarni undirishga ko‘proq e‘tibor qaratishni nazarda tutadi. Bu konsepsiyaning ayniqsa oilaviy zo‘ravonlik jinoyatida ahamiyat kasb etadigan muhim 4 asoslari: zararni qoplash, huquqni tiklash, ixtiyoriylik (kelishuv) va kuchlarni tengligidir.

Sud hujjatlarini o‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, 2023-yilda oilaviy zo‘ravonlik jinoyati bo‘yicha sudlarda ko‘rib chiqilgan ishlarning 60% yarashuv bo‘yicha tugatilgan, faqatgina 40% qismi bo‘yicha ayblov hukmlari chiqarilgan.

10. Oilaviy zo‘ravonlik jinoyati kelib chiqishi sabablari va unga sharoit yaratuvchi holatlar bo‘yicha turli konsepsiya va qarashlar mavjud bo‘lib, ular muayyan jamiyatning ijtimoiy-madaniy kontekstiga bog‘liqdir. O‘zbekistonda oilaviy zo‘ravonlik jinoyati kelib chiqish sabablari va unga shart-sharoit yaratuvchi holatlarning ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy, psixologik sabablarini ajratish mumkin.

Ijtimoiy-madaniy sabablar: qadriyatlar va ijtimoiy rollar (xotin, ona, ota, oila boshlig‘i va hk.), patriarxal ustunlik va hukmronlik, oiladagi nazorat va jazolash imkoniyati, ichkilikbozlik va qadriyatlardan og‘ish;

Iqtisodiy sabablar: daromadlar kamligi, yetishmavochilik va ishsizlik;

Psixologik sabablar: tushkunlik, agressiya, psixologik kasalliklar.

11. Ayollarga muayyan rollarni taqdim etadigan, ularni nazorat qilishni ta‘minlovchi ijtimoiy normalar zo‘ravonlikni ta‘minlaydi. An‘anaviy gender rollari, ya‘ni oiladagi ayolni (bolani yoki boshqa o‘z shaxsni) muayyan rol bilan identifikatsiya qilish, masalan, ayolni faqatgina uyda bola paravarishi va ovqat qilishi kerak, oiladagi muhim qarorlarni er hal qilishi lozim degan norma va qadriyatlar zo‘ravonlikka zamin yaratishi mumkin. Shuningdek, oilaviy zo‘ravonlik sabablarini iqtisodiy tushuntirish ham mumkin bo‘lib, kambag‘allik, ishsizlik va tengsizlik, iqtisodiy beqarorlik oilaviy zo‘ravonlikning muhim sabablari sifatida ko‘riladi.

12. Oilaviy zo‘ravonlik jinoyatlari geografiyasiga qaralsa, jinoyat asosan qishloq joylarda sodir etilishi ko‘rinadi. Qolaversa, yuqoridagi sud statistikasiga ko‘ra eng ko‘p oilaviy zo‘ravonlik jinoyatlari Farg‘ona (111 ta jinoyat ishi), Toshkent (78 ta jinoyat ishi) hamda Namangan (53 ta jinoyat ishi) viloyatlarida sodir etilgan. Toshkent shahrida esa, garchi aholi soni boshqa hududlardan ko‘proq bo‘lsa-da, 16 ta oilaviy zo‘ravonlik jinoyati ko‘rib chiqilgan.

Qishloq joylarda sodir etilayotgan oilaviy zo‘ravonlik jinoyatlari darajasi ham og‘irroq, ya’ni badanga shikast yetkazishning o‘rtacha og‘ir va og‘ir holatlari aksariyati qishloq hududlarga to‘g‘ri kelmoqda.

13. Oilaviy zo‘ravonlik jinoyatlari demografiyasi va jinoyat sodir etuvchi shaxsiyatiga kelsak, bu bo‘yicha ma’lumotlar demografik holatga bog‘liqligi ko‘rinadi. 2023-yilda oilaviy zo‘ravonlik jinoyati sodir etgan shaxslarning aksariyati – 118 tasi 14-30 yosh oralig‘idagi yoshlardir (60 yoshdan katta yoshlilar soni 10 ta).

14. Oilaviy zo‘ravonlik jinoyatini sodir etuvchi shaxs shaxsiyati yig‘indisi:

20-35 yosh erkak;

oilada ijtimoiy maqe’ini oshirishga harakat qiladi;

ishsiz yoki daromadlari kamroq;

asosan qishloq hududlarda yashaydi;

ma’lumoti o‘rta yoki o‘rta maxsus;

psixologik holati beqaror, tez agressiyaga kirishadi;

yaqin qarindoshlari va jamoatchilik bosimini jiddiy qabul qiladi.

15. Jabrlanuvchi shaxsi va holati tadqiq qilingan 2023-2024-yillarda sodir etilgan oilaviy zo‘ravonlik jinoyati ishlarining barchasi (100%)da jabrlanuvchilarni ayol jinsiga mansub shaxslar tashkil etadi. Jinoyat sodir etgan shaxslar esa 93% erkaklar hamda 7%ida erkaklar bilan birga ayollar ishtirokchi sifatida yoki asosiy bajaruvchi sifatida namoyon bo‘lgan.

Jabrlanuvchilarning yoshi eng ko‘pchiligi (64%) 20-35 yoshni, keyingi toifa 35-75 (23%) va undan kattaroq yoshni tashkil etadi.

16. Tadqiqotga ko‘ra oilaviy zo‘ravonlikni oldini olish, profilaktika qilishga oid quyidagi muammolar mavjud: oilaviy zo‘ravonlikning ko‘pincha latentligi; ijtimoiy-madaniy normalarning bosimi mavjudligi; bu jinoyat sodir bo‘ladigan muhitning yopiqligi; huquqiy mexanizm va institutlarning yo‘qligi; oila va ro‘zg‘ordagi iqtisodiy qaramlik; zo‘rlikdan qutulish uchun yetarli himoyaning yo‘qligi; axborot va tadqiqotlar yetishmasligi.

17. Antropologlar tomonidan oxirgi yillarda shakllangan “uyat” va “ayb” madaniyati, ya’ni kolektivist va individualistik madaniyatlar orasidagi farq o‘zbek jamiyatga ham tegishli bo‘lib, bu ayni oilaviy zo‘ravonlikni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-madaniy normalar hamda bu zo‘rlikning yashirilishini belgilaydigan madaniy unsurlarni ifodalaydi. Oilaviy zo‘ravonlikni oldini olishga to‘siq bo‘luvchi va uning latentligini oshiruvchi eng muhim obyektiv holat bu uy xo‘jaligi va oilaning uchinchi shaxslar uchun yopiqligidir.

18. An’anaviy ijtimoiy-iqtisodiy va kriminologik choralardan tashqari, oilaviy zo‘ravonlikni oldini olishda zamonaviy chora-tadbirlar ham shakllanib, AQShda qo‘llanilayotgan MyPlan, Hindiston politsiyasi joriy etgan Himmat Plus kabi mobil ilovalar ham oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish texnologiyalari sifatida samarali ishlamoqda. O‘zbekistonda ham bu kabi mobil ilovalarni tatbiq etish maqsadga muvofiq.

19. Oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish choralari mazmuniga ko‘ra, empirik kuzatuvlar hamda ilmiy-nazariy ishlanmalarga ko‘ra, umumiy va maxsus kriminologik shakllarga ajratish mumkin. Umumiy oldini olish choralari bu iqtisodiy yordam, jabrlanuvchilarga himoya va yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatish hamda murojaat qilish imkoniyatlarini berish, mahalla va jamoatchilik tomonidan zo‘ravonlik xavfi mavjud toifadagi qatlam uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish, zamonaviy texnologiyalar yordamida turli xil navigatsiya va xabar berish

imkoniyatlarini taqdim etish kabilardir. Maxsus kriminologik choralarga himoya orderlari berish, zo‘ravonlik xavfini tahlil qilish va profilaktika qilish, oilaviy zo‘ravonlik jinoyati dinamikasini kuzatib borish va xavf guruhlari bilan ishlash, oilaviy zo‘ravonlik ma‘muriy huquqbuzarligini jinoyatga aylanmasligi uchun har bir ma‘muriy huquqbuzarlikni maxsus xavf tahlili axborot markazida to‘plash va tahlil qilib borish kabilar kiradi.

## **II. Qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan tavsiya va xulosalar.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 126<sup>1</sup>-moddasida:

a) ushbu modda birinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

“Xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir **uy xo‘jaligida** birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo‘lgan shaxsga, **shuningdek, uy xo‘jaligida birgalikda yashayotgan voyaga yetmagan shaxsga yoki jismoniy yoki ruhiy holati sababli ojiz ahvoldagi shaxsga** nisbatan sodir etilgan mulk, ta‘lim olish, sog‘liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qilish, mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish, xuddi shuningdek, ushbu shaxslarning sha‘ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni qo‘rqitish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo‘yish, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, shuningdek basharti boshqa jinoyat alomatlari mavjud bo‘lmasa”;

b) ushbu moddaning ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi, oltinchi qismlarini “Xotinini (erini), sobiq xotinini (sobiq erini), bir ro‘zg‘or asosida birgalikda yashayotgan shaxsni yoki umumiy farzandga ega bo‘lgan shaxsga” jumllaridan keyin **“shuningdek, uy xo‘jaligida birgalikda yashayotgan voyaga yetmagan shaxsga yoki ayni vaqta jismoniy yoki ruhiy holati sababli ojiz ahvoldagi shaxsga”** jumllari bilan to‘ldirish taklif etiladi.

## **III. Sud amaliyotini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 25-oktabrdagi “Yarashuv to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi qaroriga 27-son qaroriga quyidagi mazmundagi band kiritish taklif etiladi:

“8.1. Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik ishlarida yarashuv to‘g‘risida ish yuritishda sudlar ayolning yarashuvda amaldagi tengsiz imkoniyati ehtimolini yaxshilab tekshirishi, jamiyatdagi an‘analar hamda yaqinlarning ayolni yarashishga majburlamaganiga ishonch hosil qilishi, zararni qoplashga va huquqni tiklashga doir choralarni sinchiklab o‘rganishlari lozim. Bunda jabrlanuvchining ko‘rsatmasi bilan cheklanmasdan, guvoh va boshqa protsess ishtirokchilari ko‘rsatmalarini hamda boshqa obyektiv holatlarni o‘rganishlari lozim”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi 1-sonli qarori 3.1-bandini quyidagi mazmundagi band bilan to‘ldirish taklif etilgan:

“uy xo‘jaligida birgalikda yashayotgan voyaga yetmagan shaxs deganda muayyan uy xo‘jaligida, qarindoshligidan qat‘iy nazar boshqa voyaga yetgan shaxslar bilan birga yashovchi voyaga yetmagan shaxs;

jismoniy yoki ruhiy holati sababli ojiz ahvoldagi shaxs deganda aybdor bilan bir uy xo‘jaligida yashovchi, jismoniy yoki ruhiy holati (masalan, nogironligi yoki vaqtinchalik kasalligi) sababli imkoniyati jiddiy cheklangan shaxs tushuniladi”.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**БОБОКУЛОВ ХАМИД МАХМАДУСТОВИЧ**

**УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ И КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ  
БОРЬБЫ С СЕМЕЙНЫМ (БЫТОВЫМ) НАСИЛИЕМ**

12.00.08 – Уголовное право. Уголовно-исполнительное право.

12.00.15 – Криминология (Юридические науки)

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации доктора философии по юридическим наукам (Doctor of Philosophy)**

**Ташкент – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2024.2.PhD/Yu1474.**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном юридическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (русском, узбекском и английском языках (резюме)) на веб-сайте Научного совета (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Хакимов Комил Бахтиярович**  
доктор юридических наук (DSc), профессор

**Официальные оппоненты:**

**Кабулов Рустам**  
доктор юридических наук (DSc), профессор

**Джалилов Фуркат Закирович**  
доктор философии по юридическим наукам (PhD)

**Ведущая организация:**

**Каракалпакский государственный университет имени Бердаха**

Защита диссертации состоится 9 октября 2025 года в 14:00 на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 при Ташкентском государственном юридическом университете (Адрес: 100109, г. Ташкент, ул. Сайилгох, 35. Тел.: +99871 233-66-36; факс: +998971 233-37-48; e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного юридического университета (зарегистрировано за №1425). (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, 35. Тел.: +99871 233-66-36).

Автореферат диссертации разослан 23 сентября 2025 года.

(реестр протокола рассылки № 57 от 23 сентября 2025 года).

**А.А.Отажонов**

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук (DSc), профессор

**И.Б. Джураев**

Научный секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук (DSc), доцент

**Д.Б.Базарова**

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук (DSc), профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы исследования.** В мире семейное насилие, включая психическое, экономическое, сексуальное и физическое, наносит социально-экономический ущерб обществу, приводя к краху института семьи, нарушению воспитания детей и повышению уровня преступности. В частности, по данным ВОЗ считает треть (30%) женщин во всем мире подвергаются физическому или сексуальному насилию в течение своей жизни<sup>1</sup>, что в конечном итоге приводит к огромным инвестициям в здравоохранение, правоохранительную сферу и программы помощи жертвам, нанося ущерб национальной экономике. Это состояние приводит к проблемам с психическим здоровьем, включая депрессию, тревогу и травматический стресс, в результате насилия в обществе. Подобные обстоятельства обуславливают критику насильственных элементов патриархальных традиций и требуют развития здоровых семейных ценностей, внедрения на национальном уровне международных стандартов гендерного равенства, совершенствования системы оперативного и эффективного реагирования на случаи семейного насилия в правоохранительных органах, реформирования системы применения уголовной ответственности за семейное (бытовое) насилие. Это, в свою очередь, свидетельствует о необходимости совершенствования уголовно-правовых и криминологических аспектов противодействия семейному (бытовому) насилию.

В мире особое внимание уделяется научным исследованиям, направленным на отдельное изучение насилия в отношении женщин при совместной жизни в домашнем хозяйстве, совершенствование законодательства в борьбе с насилием, а также социально-воспитательный и криминологический подходы к предупреждению данного преступления. В частности, достигнуты определенные результаты по разработке специальной программы, направленной на коррекцию поведения мужчин, совершивших насилие, программ психологической помощи детям из семей, подвергшихся насилию, по улучшению эмоционального здоровья детей, совершенствованию организационно-правовых мер по использованию образовательных возможностей, связанных с гендерным равенством и борьбой с насилием в борьбе с преступностью. Тем не менее, в современных условиях назрела необходимость комплексного изучения теоретических, практических и правовых проблем, присущих уголовно-правовым и криминологическим аспектам борьбы с семейным (бытовым) насилием, выявления и решения существующих проблем в данной сфере, совершенствования законодательства и практики его применения по ликвидации бытового насилия.

